XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-033-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati

Viloyat hokimligi huzuridagi “Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularni chegarlarini belgilash va o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiquvchi” idoralararo doimiy komissiyasining Farg‘ona shahrida barpo etilgan “Eko shahar” hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish bo‘yicha xulosasini ko‘rib chiqish haqida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-son Farmoniga asosan Farg‘ona shahar hududida “Ekoshahar” barpo etilgan.

Xozirgi kunda “Ekoshahar” hududida qurilayotgan 95 ta ko‘p qavatli uylarning 75 tasi foydalanishga topshirilgan bo‘lib, mazkur ko‘p qavatli uylardagi 2 917 ta xonadonlarda 5 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qilmoqda.

Shunga ko‘ra, “Ilg‘or” mahalla fuqorolar yig‘ini negizida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil qilish (keyingi o‘rinlarda – mahalla tashkil qilish) zarur bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi matnlarda - Nizom) tasdiqlangan.

Mazkur Nizomga ilova sifatida tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirishda amalga oshiriladigan tadbirlar” sxemasiga (keyingi matnlarda - sxema) asosan tuman (shahar) hokimliklari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to‘plami viloyatlar hokimliklari huzuridagi Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyasi tomonidan bevosita joyiga chiqib o‘rganishi, shuningdek, takliflarni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik to‘g‘risida xulosa tuzishi, tayyorlangan xulosani ko‘rib chiqish uchun xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga kiritishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, Farg‘ona shahar hokimligining 2024 yil 4 dekabrdagi 2661-01-22-sonli aloqa xati orqali “Farg‘ona shahrida barpo etilgan “Eko shahar” hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish” yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar to‘plami viloyat hokimligi huzuridagi “Mahallalarni tuzish, birlashtirish,

bo‘lish va tugatish, shuningdek ularni chegarlarini belgilash va o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiquvchi” idoralararo doimiy komissiyasi (keyingi mantlarda - Idoralararo doimiy komissiyasi) tomonidan ko‘rib chiqilgan hamda ushbu taklif qanoatlantirilgan hamda komissiyaning 2024 yil 24 dekabrdagi 461/01-49-sonli bayoni (xulosasi) rasmiylashtirilgan.

Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024 yil 24 noyabrdagi 16-1937-sonli xulosasi ham olingan.

Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024 yil 24 sentyabrdagi 05-19-01-4124-sonli ekspert xulosasi tasdiqlangan.

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi 2024 yil 16 oktyabrdagi VI-114-82-11-169-K/24-sonli qarori bilan, Kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasiga asosan yangi tashkil etilishi rejalashtirilayotgan mahalla fuqarolar yig‘iniga “Nurafshon” nomi berilishi tasdiqlangan.

Sxemaga asosan, xalq deputatlari viloyatlar Kengashi navbatdagi sessiyada Idoralararo komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqishi va mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish yoki ushbu taklifni rad etishi to‘g‘risida qaror qabul qilishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, Idoralararo doimiy komissiyasining mazkur bayoni xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritilgan.

Idoralararo doimiy komissiyasining 2024 yil 24 dekabrdagi 461/01-49-sonli bayoni (xulosasi) inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Idoralararo doimiy komissiyasining 2024 yil 24 dekabrdagi 461/01-49-sonli bayoni (xulosasi) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024 yil 24 noyabrdagi 16-1937-sonli xulosa xati;

Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024 yil 24 sentyabrdagi 05-19-01-4124-sonli ekspert xulosasi inobatga olinsin.

3. Idoralararo doimiy komissiyaning Farg‘ona shahrida barpo etilgan “Eko shahar” hududida “Nurafshon” nomli yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Miraxmedov) Farg‘ona shahar hokimligi (V.Nazarov) bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralarini aks ettirgan va tavsiflagan holda, mahalla hududi chizmasini tayyorlash hamda qo‘shni mahallalarning fuqarolar yig‘inlari bilan kelishish choralarini ko‘rsin.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Farg‘ona shahar hokimligi (V.Nazarov) bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini

faoliyatini tashkiliy-huquqiy va moliyaviy jihatdan samarali yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur kengash qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Polvonov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi X.Komilov